



YOG'LI GEPATOZ KASALLIGIDA OVQATLANISH STRATEGIYASINING PATOFIZIOLOGIK VA KLINIK-GENETIK ASOSLARI

*Mamanzarova Nazokat Odildjon qizi*¹

*Akhrarova Azizakhon Rakhmatullayevna*²

*Tadjiev Botir Mirhoshimovich*³

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti Tayanch doktoranti*¹

*Alfraganus University ichki kasalliklr kafedrasi assistenti*²

*Epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitlar
kasalliklar bo'yicha Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi, t.f.d. professori*³

Dolzarbli: Metabolik-assotsiyalangan yog'li jigar kasalligi hozirgi kunda jahon hamjamiyatida universal kardiometabolik pandemiya sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu patologiya ko'p a'zoli tizimli kasallik bo'lib, uning patogenezi insulin rezistentligi, lipidlar almashinuvining genetik va epigenetik buzilishlari hamda surunkali subklinik yallig'lanish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda jigar steatozini regressiya qilishda spetsifik farmakoterapevtik vositalarning samaradorligi yetarli emasligi sababli, kasallikning gepatotsellulyar karsinoma va jigar sirrozi bosqichiga o'tishini to'xtatishda patofiziologik jihatdan asoslangan nutritiv (dietologik) modifikatsiya birlamchi fundamental va patogenetik davolash strategiyasi bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Yog'li gepatoz fonida organizmning gepatotsitlardagi gipoksiyani kamaytirish, mikrosomal va mitoxondrial disfunksiyaning bartaraf etish hamda lipid to'planish mexanizmlarini tormozlashda maqsadli klinik-nutritiv aralashuvning patofiziologik samaradorligini baholash va ilmiy-nazariy asoslash.

Material va usullar: Tadqiqot doirasida klinik, biokimyoviy va instrumental tekshiruvlar natijasiga ko'ra yog'li gepatoz (I-III darajali steatoz



va steatogepatit) tashxisi qo'yilgan 140 ta bemor kuzatuvga olindi. Bemorlar randomizatsiya usuli bilan ikki guruhga ajratildi:

Asosiy guruh (soni=75): Standart gepatoprotektiv davo fonida uglevod va lipidlar arxitekturasini o'zgartirilgan, polifenollar hamda antioksidantlar bilan boyitilgan shaxsiylashtirilgan parhez stolini qabul qildi.

Nazorat guruhi (soni=65): Faqatgina an'anaviy kam kalloriyalik umumiy parhez tavsiyalariga (stol №5) amal qildi. Bemorlarda dinamikada jigar fibroelastometriyasi (FibroScan), jigar steatozi indeksi (HSI), gomeostatik insulin rezistentligi modeli (HOMA-IR), lipid profili fraksiyalari va jigar sitolizi biomarkerlari (ALT, AST) tahlil qilindi.

Olingan natijalar: 6 oylik maqsadli nutritiv modulyatsiyadan so'ng, asosiy guruh bemorlarida nazorat guruhiga nisbatan quyidagi yuqori samarali natijalar qayd etildi.

Biokimyoviy va Sitolitik dinamika: Jigar fermentlaridan

1. ALT faolligi 48.2% ga,
 2. AST esa 39.5% ga kamaydi.
 3. Triglitseridlar (TG) darajasi o'rtacha 2.3dan 1.5 gacha tushdi ($p < 0.01$).
- Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar dinamikasi o'rtacha atigi 12-15% atrofida ijobiy o'zgarish ko'rsatdi, xolos.

Muhokama: Antifibrotik va Antioksidant qalqon: Tabiiy polifenollar (kofe tarkibidagi xlorogen kislota) va alfa-tokoferol (Vitamin E) endotelial lipid peroksidlanishini va yallig'lanish sitokinlari (TNF- α , IL-6) sintezini blokladi. Bu esa jigar yulduzsimon hujayralarining (Ito hujayralari) miofibroblastlarga aylanishini hamda ortiqcha kollagen (ekstrasellyulyar matrits) ishlab chiqarishini (fibrogenezni) samarali tormozladi.

Xulosa: Metabolik-assotsiyalangan yog'li jigar kasalligini (yog'li gepatozni) davolashda ilmiy asoslangan, shaxsiylashtirilgan nutritiv aralashuv shunchaki yordamchi element emas, balki kasallik patogeneziga (insulin rezistentligi, mitoxondrial disfunktsiya va lipotoksiklikka) to'g'ridan-to'g'ri



ta'sir ko'rsatuvchi fundamental davo usulidir. Sog'liqni saqlash, gigiyena va parhezshunoslik amaliyotiga aholi o'rtasida ushbu makro- va mikronutrientlar balansiga asoslangan dietologik modellarni keng joriy etish kardiometabolik asorotlar hamda jigar sirrozi xavfini keskin kamaytirish imkonini beradi.

